

SINTAKSIS BO'LINING TADQIQI VA UNING TASNIFLANISHINING TADRIJIY TARAQQIYOT BOSQICHLARI

Rustamova Sevinch

Termiz davlat universiteti

O'zbek filologiyasi fakulteti amaliy filologiya ta'lim yo'nalishi talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17711617>

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek tili grammatikasining bir bo'g'ini sanalgan sintaksis bo'limining davriy taraqqiyoti, rivojlanish bosqichlari, O'rta Osiyo tilshunosligiga kirib kelgan holatidan toki hozirgi o'zbek tili grammatikasining asosiy va ajralmas bo'lagi bo'lib taraqqiy etib kelayotganligi xususida, shuningdek sintaksis bo'limini o'rganish bo'yicha lingvistik tadqiqotlar va ilmiy izlanishlar olib borgan jahon va o'zbek tilshunoslari va ayrim tadqiqot masalalari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: grammatika, sintaksis, tadrijiy taraqqiyot, jahon tilshunosligi, so'z birikmasi, gap, lisoniy qarash, lingvistik qarash, predikativlik, nopredikativlik, aloqa munosabat shakllari, obyektiv til, sintaktik aloqa, sintaktik munosabat.

Biz bilamizki, tilshunosligimizning paydo bo'lishi, tarixi, uning shakllanish davri, vaqtlar o'tib zamon va ijtimoiy muhit bilan bir qatorda ma'lum darajada o'sib borishi deyarli inson paydo bo'lishidan to hozirgacha bo'lgan davrni qamrab oladi.

Barcha fanlar singari tilshunoslik ham falsafa fanining yirik bo'g'ini sifatida ajralib shakllanib kelgan. Buning qadimgi eng muhim manbalari, ta'limotlari, oqimlari, ilk bor, qadimgi Hindiston, qadimgi Yunoniston va qadimgi Rim mamlakatlarida maydonga keldi. O'rta va yangi asrlarda esa til haqidagi fan Ovrupoda, Arabiston va O'rta Osiyoda taraqqiy qildi.

Tilshunoslik alohida, mustaqil fan sifatida XIX asrning birinchi choragida (1816 yilda) fanlar olamiga kirib keldi. U turli maktablar, oqimlar, ta'limotlar ta'sirida bo'ldi, olimlar tomonidan lisoniy hodisalar haqida aytilgan fikrlar qarama qarshiligiga, til hodisalari haqida yaratilgan juda ko'plab manbalarga «guvoh bo'ldi», shakllandi. Ko'rinib turganimizdek, bu juda katta davrni bosib o'tib, ijtimoiy muhit bilan birga shakllanib hozirda ajralmas holga keldi va tilshunoslik fani ham jahon fanlari sistemasida o'ziga xos va o'ziga mos doimiy mustahkam o'rin egalladi.

Tilshunoslik muammolarini o'rganish dastlab Qadimgi Hindistonda boshlangan. Qadimgi Hind tilshunosligi mil. avv. 6-asrdan oldin yaratilgan vedalarni til nuqtai nazaridan sharhlash natijasida vujudga keladi va mil. avv. 5-4-asrlarda yashagan Paninining grammatikasi tufayli yuksaklikka ko'tarildi. Bu asar nazmda yozilgan 3996 ta qoidadan iborat bo'lib, unda sanskrit fonetikasi va grammatikasi tavsif etilgan. Panini grammatikasi sof empirik va tasviriy xarakterga ega bo'lib, unda Sanskrit tilining fonetikasiga, morfologiyasiga, so'z yasaliishi va sintaksisiga oid fikrlar jamlangan. Ushbu tadqiqot tili - undagi qoidalar nihoyatda ixcham va qisqa bo'lganligi, o'ziga xos lug'atlar va terminlarga egaligi tufayli Panini tadqiqoti uzoq vaqtgacha yevropalik olimlarga tushunarli bo'lmadi. Birinchilardan bo'lib bu asarning ilmiy tadqiqot tilini va undagi g'oyani rus tilshunos olimi Otto Byotling izohlab berdi. Ya'ni, Panini o'sha vaqtdayoq tilga Sistema sifatida qaragan, va so'z turkumlarini farqladi, sistema sifatida so'z tarkibini va bog'lanish jarayonlarini aniq ko'rsatib berganligini aytadi. Paninining 8 bo'limdan iborat klassik sanskrit masalalariga oid grammatikasi Hindistonda deyarli ikki ming yil davomida eng asosiy va eng muhim qo'llanma bo'lib xizmat qildi.

Arab Tilshunosligining rivojlanishida Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Mahmud Koshg'ariy, Zamaxshariy, Javhariy singari o'rta osiyolik olimlarning ham hissasi katta bo'lgan.

Maxmud Koshg'ariy va Zamaxshariy o'zlarining "Devonu lug'otit-turk", "Muqaddimat uladab" asarlari bilan turkiy lahjalarini hamda boshqa-boshqa oilalarga mansub tillarni **qiyoslash va chog'ishtirish** bilan tilshunoslikda **qiyosiy-tarixiy metod va tipologiyadan** foydalangan dastlabki tilshunoslar sifatida nom qozonganlar.

Arab tilshunosligida sintaksis masalalari hind va yunonlardagi kabi grammatikaning bosh bo'limi hisoblangan. Shunga qaramasdan, asosiy o'rganish obyekt sifatida sintaksisni chuqur tajlil qilganlar. Ular gapning kamida ikki so'zdan – ikki otdan yoki ot va fe'ldan iborat bo'lishini, bu so'zlar o'rtasidagi subyekt - predikat munosabatining o'rganilishini to'g'ri ta'kidlaydi. Gaplarning tuzilishiga ko'ra otli, fe'lli va holli turlarga bo'lishini qayd etdilar. Otli gaplarning ot so'zdan boshlanishini (M: Zayd turibdi), fe'lli gaplarning esa fe'l bilan boshlanishini (M: turgan Zayd) boshlanishini aytadilar. Otli gapning egasi **muftado**, kesim esa **xabar** deb nomalanadi. Gapning ikkinchi darajali bo'laklari sifatida 1) to'ldiruvchi, 2) hol, 3) izohlovchilar ko'rsatiladi.

So'zlar o'rtasidagi sintaktik munosabatga xizmat qiluvchilar sifatida moslashuv, boshqaruv va bitishuv olinadi. Shuningdek, arab olimlari, otli gaplarda ega kesim bilan birga butunlikni, bog'lanishni hosil qilishi shart, lekin ular o'rtasidagi munosabatni moslashuv, boshqaruv yoki bitishuvli birikmalar sirasidaga bog'lanishga olib bo'lmasligini qat'iy ta'kid sifatida kiritib o'tadi.

Izoh sifatida aytmoqchimanki, arab tilshunosligi o'z davrining eng yetuk, mukammal shakllangan tili deb qarayman. Ular yaratgan grammatik qoidalar va uning bo'limlari haqidagi qarashlari o'sha davrgacha yechilmagan masalalardan biri edi. Bu ilmiy qarashlar, fikrlar natijasi sistem tilshunoslik uchun haqiqiy "uyg'onish davri" bo'ldi desam adashmagan bo'laman.

Hozirgi kunda ham tilga sistema sifatida qarash va bu davr tilning sistem-struktur davri deya ta'kidlanishi, o'zbek tili grammatikasining, qoidalarining shakllanishi uchun "poydevor" bo'ldi.

Rossiyada tilshunoslik XV-XVI asrlardan boshlab taraqqiy qildi. Rus tilshunoslari juda ko'plab dunyo tillarini puxta o'rganganligi bilan, lisoniy hodisalarni chuqur tahlil qilganliklari, lingvistikaning ilmiy-nazariy muommolariga jiddiy e'tibor berganliklari, yangi ta'limotlarni, nazariyalarni "ishlab chiqqanligi" bilan ajralib turadi.

Aynan rus tilshunoslik maktabining taraqqiyoti va tadqiqoti bo'yicha o'zbek tilshunosligining grammatik, sintaktik, uslubiy umuman olganda lingvistik qoidalari asoslandi.

Chunki tilshunoslik bo'yicha juda ko'p nazariyalar rus tilshunosligi va olimlarning qarashlari natijasida o'zbek tiliga kirdi. Aniqroq qilib aytganimizda, grammatikaning asosi bo'lgan morfologiya va sintaksis bo'yicha eng ishonchli tadqiqotlar rus tilshunosligi orqali kirib kelgan,

Bu qoidalar asosida esa o'zbek tili grammatikasining boyishiga asos bo'ldi. Quyida fikrimizning dalili sifatida ayrim ilmiy faktlarni keltirib o'tmoqchiman:

Tilshunos, professor N. Mahmudov va A.Nurmonovning **"O'zbek tilining nazariy grammatikasi. Sintaksis."** monografiyasida olim bu haqida shunday ta'kidlaydi: *"Sintaksis predmeti yuzasidan tilshunoslikda xilma xil qarashlar mavjud. O'zbek tili sintaksisiga doir barcha adabiyotlarda sintaksisning ikki birligi: so'z birikmasi va gap haqida fikr yuritiladi va bu ikki birlik sintaksisning tekshirish obyekti ekanligi aytiladi. Bu qarash rus tilshunosligi ta'sirida kirib keldi.*

Rus tilshunosligida sintaksisning ikkita o'rganish obyekti mavjud ekanligini A.A.Shaxmatov bayon qilgan edi. Bu fikr V. Vinogradov tomonidan rivojlantirildi. Vinogradov fikriga ko'ra, faqat so'z birikmasi va gapgina emas, balki qo'shma gap ham sintaktik birlik sifatida tan olinadi. Bu qarashga muvofiq, sintaksis uch birlik: so'z birikmasi, gap va qo'shma gap haqidagi ta'limotdir".

Qismlari o'zaro sintaktik aloqa bilan bog'langan so'z shakllarining nopredikativ sintaktik birligi – so'z birikmasi; so'z shakllarining bir necha sintaktik aloqasidan tashkil topgan predikativ sintaktik birlik – gap; qismlari o'zaro sintaktik munosabatga kirishgan gaplardan iborat bo'lgan sintaktik birlik – qo'shma gap sanaladi.

Bir guruh olimlar hozirgi kunda matn sintaksisi e'tirof etilishi munosabati bilan matn ham sintaksisning alohida o'rganish obyekti deb hisoblaydilar. Shu tariqa, mavjud adabiyotlarda sintaksisning 4 ta o'rganish obyekti ko'rsatiladi va o'z navbatida sintaksis quyidagi turlarga bo'lib o'rganiladi: 1) so'z birikmasi sintaksisi, 2) gap sintaksisi, 3) qo'shma gap sintaksisi, 4) matn sintaksisi.

Tabiiyki, ilm cheksiz uni chegarasi yo'q. Fandagi har bir fakt olimlar tomonidan turlicha talqin qilinadi. Mahmudov yuqoridagi tasnifni ma'qullamaydi, qo'shma gapni gapga qarama-qarshi qo'yish mumkin emasligini, u gap doirasida – gapning bir turi sifatida tasniflanishi maqsadga muvofiqligini aytib o'tadi. Biz ham bu o'rinda N.Mahmudovning fikriga qo'shilamiz.

Chunki hozirgi tilshunoslikda gap bu tugallangan fikr va mazmun yaxlitligiga ega bo'lishi va bosh bo'laklar asosida tuzilgan bo'lishi kerak. Gap bo'lishi uchun har doim kesim ya'ni Wpm- kesimlik shakllariga ega bo'lishi lozim. Sintaksisni oladigan bo'lsak, uning tarkibida so'z birikmasi ham o'rganiladi. Ular o'rtasida bog'lanishlar, fikrlar tahlilda gap bilan tubdan farq qiladi. Shuning uchun sintaksisni gapdan kengroq mazmunga egadir. Gap esa o'z tasnifi bo'yicha alohida guruh sifatida qaralishi kerak.

Yana bir qancha olimlar so'z birikmasini tasnif qilishda ko'p mulohazalarni qo'llab-quvvatlaydi. Ya'ni tilshunoslar so'z birikmasini, asosan, **obyektiv til** birligi deb qaraydilar.

Boshqalari esa so'z birikmasini mustaqil til (lisoniy) **birligi** deya fikr yuritadi. Jumladan, V.P Malashenko va Y.Bagachevlar so'z birikmasi shu birikmani tashkil egan hokim so'zning bog'lanish imkoniyatining (valentlik xususiyati) gap tarkibida yuzaga chiqishi, deb qaraydi, shuning uchun ham so'z birikmasi obyektiv til birligi hisoblaydi. Ularning fikricha, har qanday so'z birikmalari nutq jarayonida yuzaga keladi. Ammo bu semantik-sintaktik birlik ma'lum tilda gaplashuvchilar ongida qoliplashgan birikma asosida tarkib topadi. Bu modellar xuddi gap modellari singari nutqiy reallashuvgacha tayyor holda mavjud bo'ladi. Shuning uchun ham erkin so'z birikmasi kommunikatsiyagacha mavjud bo'ladigan birlik bo'lib, nutqqa tayyor holda foydalaniladi. So'z birikmasi - bu so'z shaki bilan birga gap uchun yoki gapning kengayishi uchun shu sathda paydo bo'ladigan qurilish vositasidir.

Y. F. Fomenko fikri esa biz gapni ma'lum tushuncha tugalligiga ega birlik deb qaraymiz, so'z birikma esa bir tushunchani emas, tushunchalar birikmasini ifodalaydi. Agar biz so'z birikmasini tushuncha bildiradi, gap uchun qurilish materiali" desak, demak so'z birikmasi doirasida ikki tushunchaning birikish hodisasi ro'y beradi degan fikrni tasdiqlagan bo'lamiz.

Xulosa qilib aytganda, so'z birikmasi "takrorlanish" xususiyatiga ega emas. Tilga tayyor holda olib kirilmaydi, balki nutq jarayonida yaratiladi.

Sintaksis (grek. Suntaxis so'zidan olingan bo'lib, "**yopishtirmoq**", "**birlashtirmoq**" demakdir) u bir tomondan so'z shakllarini bog'lanish qoidalarini, ikkinchi tomondan, tarkibida bu qoidalar ro'yobga chiqadigan butunlik-gapni o'rganadi.

Demak, sintaktik sathning asosiy birligi va sintaksisning asosiy o'rganish obyekti gap hisoblanadi. Gap bir butunlik sifatida gap bo'laklari va so'z bo'laklaridir.

Sintaksis bo'limi ma'lum sintaktik birliklarga ega bo'ladi va o'z navbatida ular **sintagmatik va paradigmatic** munosabatda bo'ladi. Muayyan sintaktik birlikning boshqa sintaktik birlik bilan ketma-ket munosabati sintagmatik munosabatni hosil qiladi.

Rus tilshunosi A.M.Peshovskiy sintaksisda **sintagmatik munosabatlar** haqida quyidagicha fikr bildiradi: ma'lum sintaktik shaklning (gap bo'lagi shaklining) boshqa sintaktik shakl bilan ketma-ket munosabati shakli sintagmatik munosabat sanaladi. An'anaviy tilshunoslikda **"sintaktik munosabat"** va **"sintaktik aloqa"** terminlari bitta ma'noda tushunish noto'g'ri. "Sintaktik munosabat" termini sintaktik birliklar o'rtasidagi mazmuniy sintagmatik munosabatni, "sintaktik aloqa" termini esa shakli sintagmatik munosabatning ifoda tomonini bildiradi. Masalan, ega va kesimning shakli munosabatidan tashkil topgan *men keldim* sintaktik qurilmasi subyekt va predikatning mazmuniy munosabatini ifoda etadi. Shakli sintagmatik munosabat ikki xil bo'ladi: a) teng munosabat (tenglanish) b) tobe munosabat (tobelanish).

Ayrim mualliflar o'zaro teng munosabatda bo'lgan sintaktik birliklar o'rtasida shakli bog'lanishning mavjudligini inkor qiladilar. Lekin rus olimi, Peshovskiy *Salim, Karim, Halim kelishdi* kabi qurilmalarda *Salim, Karim, Halim* bo'laklari bitta *keldi* bo'lagi ustidan hokimlik qilishi tufayli ma'no jihatdan bir-biriga tobe munosabatdiligini ta'kidlaydi. Aslida esa uyushiq bo'laklar o'rtasida shakli bog'lanish yo'q, ular birgalikda *keldi* bo'lagi bilan aloqaga kirishadi deb N.Mahmudov o'zbek tili qoidasi bo'yicha ilmiy asoslarni keltirib o'tadi.

O'zbek tilining qonun-qoidalari asosida ma'lum bir so'z yoki so'zlar guruhini bog'li nutqning mustaqil (sodda, qo'shma gaplar va matn) va nomustaqil (gap bo'lagi va so'z birikmasi) xususiyatga ega bo'lgan birligi sifatida shakllantiruvchi va ularni bog'lovchi vositalar **sintaktik aloqa** vositalari sanaladi. Ular quyidagilardan iborat: a) kelishik, egalik shakllari; b) yordamchi so'zlar; c) ayrim hollarda mustaqil so'zlar asosan olmoshlar; d) gap va matnda gap bo'laklarining yoki boshqa qismlarning tartibi; e) ohang.

Sintaksisning asosiy birligi gapdir. Gap boshqa sintaktik birliklardan **predikativlik** belgisi bilan farqlanib turadi. Gapni kommunikativ birlik sifatida shakllantiruvchi vosita bu predikativlik ya'ni gapning bosh bo'laklari – ega va kesim o'tasidagi munosabati. Rus professori N.Y. Shvedova "Predikativlik gapning grammatik ma'nosi. Uni gap tarkibidagi shakllar tizimiga ajratolmaymiz, u butunligicha bir ma'nodir" fikrini ilgari suradi. Predikativlikka mantiqiy nuqtayi nazardan yondashishga mashhur rus tilshunosi V. V. Vinogradov birinchi marta chek qo'ydi. U predikativlikni faqat gap bo'laklari o'rtasidagi predikativ aloqa bilan bog'liq emasligini, bu hodisa ayrim bo'laklarga bo'linmay, butun bir gapa xos ekanligini ko'rsatadi. *Jim! Issiq!* tipidagi sintaktik qurilmalarda ham predikativlik mavjudligini, bunday gaplarda u **modallik, zamon va shaxs sintaktik kategoriyalari** orqali ifodalanishini ta'kidlaydi.

Lingvistik tadqiqotlarda esa Vinogradov fikrining to'liq isbotini ko'rgan olim, rus tilshunosi T. P. Lomtev gapning **7 ta grammatik kategoriyasini** ko'p izlanishlar davomida ajratib, asoslab beradi. Ular: 1) tasdiq/inkorlik 2) aloqa turi [darak, so'roq, buyruq] 3) zamon, 4) modallik, 5) shaxs [aniqlik, noaniqlik, umumlashganlik] 6) nafaollik, 7) faollik [shaxsli va shaxssiz shakllar munosabati].

Qadimgi turkiy til va so'nggi davrlar tilining sintaktik tuzilishi bilan hozirgi zamon tili sintaktik tuzilishini qiyoslar ekanmiz, o'zbek tili sintaksisida ham jiddiy o'zgarishlar bo'lganligi aytishimiz mumkin.

Shuni aytib o'tmoqchimanki, bu o'zgarishlar ko'pincha **morfologiya va leksikada** bo'lgan o'zgarishlar tufayli va o'zbek tiliga boshqa tillarning ta'siri natijasida samarali o'zgarishlarning guvohi bo'lamiz. Misol uchun, **vosita kelishigining** iste'moldan chiqishi so'zlarning **boshqaruv munosabatini** o'zgartirib, **hol** doirasini kengaytirdi.

Boshqa til ta'sirida esa o'zbek tiliga **fors-tojik** tilidan **yangi so'z birikmalari, ergash gaplar** tasnifi va qoidalar tizimi vujudga keldi.

O'zbek tilshunosligida sintaksisni yanada chuqurroq o'rganish bo'yicha ham juda ko'p tadqiqotlar va izlanishlar olib borilgan. Bunda xususan, **A.Berdialiyev, R.Sayfullayeva, A. Nurmonov, N. Mahmudov, A.Ahmedov, S.Solixo'jayeva, M.Abduzolova, A.G'ulomov, M.Asqarova** kabi olimlarning tadqiqotlarini ko'rsatib o'tishimiz lozim. Bu tadqiqotlarda gapning bosh bo'laklari xususida ham yangicha qarashlar paydo bo'ldi. bu, ayniqsa, **N. Mahmudov, A. Nurmonov, M.Abdumuzimov**alarning ishlarida o'z aksini topdi. Bu yangi tadqiqotga ko'ra o'zida predikativlikni aks ettiradigan, gapni uyushtiruvchi va shakllantiruvchi bo'lak – **kesim**. Kesim gapning markaziy bo'laagi bo'lganligidan butun tavsifi – grammatik kategoriyalari: tasdiq/inkorlik, shaxs, zamon, kommunikativ maqsad va hakazolar kesimga qarab belgilanadi. To'g'ri, kesim haqidagi bunday mulohazalar an'anaviy tilshunoslikda ham bor.

Jumladan A. G'ulomov fikrining davomida shunday xulosa qiladi: "Kesim ega bilan o'zaro bog'langan bo'lib, gapning uyushtiruvchi markazlaridan biridir: u hukmni ifodalovchi, gaplikning asosiy belgilarini (modallik, zamon va shaxsni) – predikativlikni ko'rsatuvchi eng zaruriy bo'lak bo'lganligi uchun gapning strukturasini, xarakterini belgilashda katta rol o'ynaydi.

Ega esa faqatgina nutq predmetini, ya'ni gapning nima to'g'risida borishini aniqlaydi". (G'ulomov. A, Asqarova. M "Hozirgi zamon o'zbek tili. Sintaksis. T., 1987)

Bu sintaksisni o'rganishda til uchun katta tadqiqot masalasi edi. O'zbek tilining qonun qoidalar tizimi ham aynan shu shaklda tuzilgan. "Gap tushunchasi kesim tushunchasi bilan juda zich bog'langandir. Predikativ aloqaning ko'rsatkichlari faqatgina kesimda bo'ladi. Bu bo'lakning ayrim bo'laklar singari ifodalanmay qolishi mumkin emas." (G'ulomov. A, Asqarova. M "Hozirgi zamon o'zbek tili. Sintaksis. T., 1987) Mulohazalarimiz so'nggida aytib o'tish joizki, tilshunoslik paydo bo'lgan davrdan toki hozirgi kungacha jahon tilshunosligida fanning taraqqiy etishi, ijtimoiy muhit bilan birga shakllanib boyib borishi har bir tilning xalqaro darajaga chiqishi uchun eng zarur vosita hisoblanadi. Tilshunoslikning rivojlanishida olimlarning nazariyalari "ustun" vazifasini o'tagan. Har bir olim o'zining ilmiy nuqtayi nazaridan tilni turli jihatdan tahlil qilgan. Tilshunoslik fanining shakllanishi va taraqqiyoti, uning turli bosqichlari va ilmiy maktablari tarixiy jarayonlar bilan bog'liq bo'lib, insoniyatning tilni o'rganishga bo'lgan qiziqishining natijasidir. Bu fan tarixan diniy va falsafiy qarashlardan ajralib, mustaqil ilmiy sohaga aylandi. Tabiiyki, bu nazariy va amaliy qarashlarning mahsuli.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. R. Rasulov. Umumiy tilshunoslik. T.2010
2. N. Mahmudov, A.Nurmonov. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. T. 1995
3. I. Rasulov. So'z birikmasi masalasi. 1978
4. А л и е в У. Б. Синтаксис карачаева-балкарского языка', 1972, с. 28
5. Гуломов А. Аскаров М. Хозирги ўзбек тили. Синтаксис.: Тошкент, 1961
6. Ўзбек тили грамматикаси. II том. Синтаксис. Тошкент^ Фан, 1970
7. Абдурахмонов Ғ., Суяймонов А., Холиёров Х., Омонтурдисв Ж. Хозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. Тошкент: Ўқитувчи, 1979

- 8 Ҳожиёв А., Маҳмудов Н. Семантика ва синтактик позиция. — «Ўзбек тили ва адабиёти», 1983, 2-сон
- 9 Маҳмудов Н. М. Қайта қуриш ва ўзбек морфологияси"нинг айрим масалалари. «Ўзбек тили ва адабиёти», 1988
- 10 Mirzayev M., Usmonov S., Rasulov I. O'zbek tili. "Tilshunoslikdan umumiy ma'lumot"bobi.-
- 11 С.Усмонов. Умумий тилшунослик. -Т., 1972
- 12 В.В.Виноградов. История русских лингвистических учений.- М., 1978.